

O'zbekistonda ishsizlikni keltirib chiqarayotgan omillar

Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li

O'zbekiston dunyo hamjamiyati davlatlari o'rtasida aholisining jadal o'sib borayotganligi bilan ajralib turadi. Mamlakat aholisining soni har yili o'rtacha 550-600 ming kishiga, mehnatga layoqatli aholi soni esa 250-300 ming kishiga ko'paymoqda. Bunday vaziyat o'z navbatida aholining ish bilan bandligini oshirish, buning uchun esa ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish borasida uzluksiz ish olib borishni taqozo etadi. Aks holda, aholining turmush darajasining pasayib borishi, mamlakatda ishsizlar sonining ortib borishi bilan bog'liq muammolar kelib chiqishi mumkin. Natijada iqtisodiy faol aholining bir qismi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda ish bilan band bo'lmaydi va mehnat bozorining yordamida o'zining jismoniy va aqliy qobiliyatlarini ro'yobga chiqara olmaydi. Nazariy jihatdan qaraganda ishsizlik iqtisodiy kategoriya bo'lib, u insonning mehnat qilish huquqi, uning o'z mehnatga qodirligini yuzaga chiqarish huquqi kabi tabiat bergan huquqini amalga oshirish borasida yollanma xodimlar bilan ish beruvchilar o'rtasida kehadigan munosabatlarni aks ettiradi.¹

Ishsizlik — bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi. O'zbekistonda Ishsizlik tushunchasi rasman 1992-yil "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan me'yoriy kuchga ega bo'ldi.

Ishsizlik ish kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi. Ishsizlik sababi turlicha: texnika rivojlanish bilan mehnat unumdorligi ortadi, kam mehnat talab bo'lib qoladi. Iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati buziladi, tovarlarga bozor talabining qisqarishi ish kuchiga talabni ham qisqartirib yuboradi, natijada ish kuchining bir qismi ortiqcha bo'lib qoladi; iqtisodiyot rivojlanishi bilann malakali ish kuchiga talab oshib, malakasizlar kerak bo'lmay qoladi; aholi ishchilarga nisbatan tez o'sgan kezlarda, uning bir qismi ortiqcha bulib, ishsiz qoladi.

Ishsizlik sababi har xil bo'lganidek uning shakllari ham turlicha. Ishsizlik ning asosiy shakllari: friksion Ishsizlik — turli sabablarga ko'ra (yangi yashash joyiga o'tish, kasbni o'zgartirish, bola boqish, yangi ish tanlash) vaqt-vaqti bilan ishsiz qolish. Bu ixtiyoriy ishsizlik hisoblanadi. Tarkibiy Ishsizlik — ishlab chiqarish tuzilmasi o'zgartirilgan sharoitda eski tarmoqlarda ishlab kelgan kishilarning yangi tarmoqlarga kerak kasbni hali o'zlashtirmagan kezlarda yuz beradi. Siklli Ishsizlik — iqtisodiy tangliklar bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarishning pasayib ketishi natijasida yuzaga keladigan Ishsizlik Bu majburan ishsiz qolishdir. Mavsumiy Ishsizlik — mavsumiy ishda band bo'lganlarning mavsum tugagach, ishsiz qolishi. Yashirin Ishsizlik — rasman ish bilan band bo'lganlarning faqat qisman ishlashi. Unga qisqartirilgan ish kuni yoki ish haftasiga o'tganlar, ish yo'qligidan haqberilmaydigan ta'tilga chiqqanlar kiradi.

Yana bir sabab, texnologik rivojlanish va malakaning yetishmasligi ishsizlikning sabablari sifatida keltirilgan ikkita omildir. Texnologik rivojlanish turli yo'llar bilan ish o'rinlarining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Masalan, yangi texnologiyalar ilgari odamlar tomonidan bajarilgan vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin yoki ular mahsulot va xizmatlarni yanada samarali ishlab chiqarish imkonini beradi. Bu esa ishsizlikka sabab bo'lishi mumkin.

O'zi qanday odam ishsiz sanaladi? Ishsizlik — ishlash layoqatiga ega bo'lgan va mehnat qilish istagini bildirgan iqtisodiy faol fuqarolarning ish topa olmasligi.

¹ Abduraxmonov Q.X., Shoyusupova N.T. Aholini ish bilan bandligi. O'quv qo'llanma. – T.: 2011. - 291 b.

Ishsizlik juda ko'p muammolarga zamin yaratadi — jinoyatchilik oshadi, oilalarda notinchlik paydo bo'ladi, bolalarning tarbiyasi buziladi. Ishsizlikning ma'lum darajaga yetishi hatto davlatchilik tanazzuliga ham sabab bo'lishi mumkin. Ya'ni bu yerda illatli doira paydo bo'ladi: ishsizlar ko'payishi davlatni zaif qiladi, zaif davlatda esa ishsizlar yanada ko'payadi. Lekin dunyoning xoh rivojlangan, xoh rivojlanayotgan biror davlati yo'qki, ishsizlik muammosi bo'lmasa.

Bizni ko'proq o'zimizdagi holat qiziqtiradi. O'zbekistonda rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ishga layoqatli aholining taxminan 10 foizi ishsiz. Ya'ni ichki mehnat bozorida band bo'lganlar, chetga ketganlardan tashqari 1,5 mln nafarga yaqin fuqaro ishsiz hisoblanadi.

Ishsizlik jiddiy muammo ekanligi, unga qarshi astoydil kurashish zarurligini e'tirof etgan holda, bugun masalaga ikkinchi tarafdin yondashib ko'ramiz.

Bugun aksariyat tashkilotlar, ayniqsa nodavlat kompaniyalar yaxshi xodimlar qidirib, bo'sh ish o'rinlari haqida e'lonlarni muntazam joylashtirib borishadi. Eng katta ish beruvchi bo'lgan davlat tizimida ham vakant talaygina.

Misolga e'tibor bering: Toshkent viloyatida 130 ming aholi ishsiz, kelgusi besh yilda 270 ming yoshlar mehnat bozoriga kirib keladi. Ayni paytda viloyatda 8 ming pedagog, 11 ming muhandis va texnologlar, 3 ming agronom va veterinar, 7 mingdan ziyod IT sohasida, geologiya va qurilish-loyihalash sohalarida kadrlar yetishmaydi.

Bu prezidentning Toshkent viloyatiga tashrifidagi nutqidan, ya'ni birinchi manbadan olingan ma'lumotlar.

Kimdir muttasil ish izlaydi, qaysidir tashkilotlar esa malakali xodimga zor. Xo'sh, nega shunaqa? Albatta, maosh kamligi, ish sharoitlarini og'irligi, geografik noqulaylik kabi jiddiy sabablar bor. Lekin tanganing ikkinchi tarafiga e'tibor berilsa, boshqa jiddiy sabablarni ham ko'rish mumkin: sabr-toqat yo'qligi, malaka yetishmasligi, noreal orzular shular jumlasidan.

Afsuski, juda ko'pchilik yoshlar, ya'ni mehnat bozorini muttasil to'ldirib borayotganlar amalda imkonsiz talablar bilan ham qimmatli vaqtlarini, ham yaxshi imkoniyatlarini yo'qotadi. Chunki hech kim yosh mutaxassisni diplomi borligi uchungina, yoki shu odam ishsizligi uchungina (deylik) 10 mln so'm maosh bilan kutib o'tirmaydi.

Har qanday ishga va maoshga talabgor zarur bo'lsa eng quyi pog'onadan boshlab o'zini ko'rsata bilishi lozim va hatto shart bu. Nega? Chunki qiyinchiliklar insonni toblaydi, mutaxassis sohaga oid zarur ko'nikmalarga ega bo'ladi, shu paytgacha ota-onasi qaramog'ida yurganida his qilmagan narsani — pul oson topilmasligini anglab yetadi. Eng muhimi — vaqt o'tgani sayin turtina-surtina tajribasini oshirib boradi.

Sabot bilan ishlagan, bilimi va salohiyati chindan bo'lgan mutaxassis har qanday tashkilotda o'z o'rnini topa boradi. Tabiiyki, maoshlar ham oshadi, hech kim bunday xodimni qo'yib yuborgisi kelmaydi. Vaqt kelib lavozim ham ko'tariladi, katta daromad ham topiladi, boshqa joylardan yaxshi takliflar ham kelib tusha boshlaydi.

Bugungi vaziyat qanaqa? O'zbekiston aholisi jadal ko'payayotgan, har yili o'rtacha 700 ming yoshlar mehnat bozoriga kirib kelayotgan mamlakat. Albatta, ularning hammasini ish bilan ta'minlab borish imkonsiz. Lekin hech bo'lmasa bo'sh ish o'rinlarini band qilishga nima to'sqinlik qilmoqda?

«Ish yo‘q, bor ishning oyligi kam», deya nolish bilan nimani o‘zgartirish mumkin? O‘sha oz maosh olmaydigan, yoki biror kasb bilan band bo‘lmaydigan odamning maqomi oziga qanoat qilganga va yaxshilikka umid qilayotganga teng kelmaydi-ku?

Ish qidirganlarning aksariyatida «har qanday ishga kirish uchun albatta pora berish zarur», degan dogmatik qarash bor. Unutmang: har doim ham davlat asosiy ish beruvchi bo‘lib qolmaydi, nodavlat tashkilot esa o‘ziga o‘zi zarar qilib, pora olish yo‘li bilan keraksiz xodimni ishga olmaydi.

Bu yerda muhim bir jihatni esdan chiqarmaslik lozim — gap aynan mehnatga tayyor, ma‘lum darajada bilim va qobiliyatga ega, qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o‘tishga tayyorlar haqida ketmoqda. O‘zi biror narsani eplay olmaydigan, salohiyat nol, ammo ambitsiyalari ummon bo‘lganlar haqida emas.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ishsizlik va u bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy mehnat munosabatlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ishsizlik muammosini o‘rganishdan asosiy maqsad aholini ish bilan bandligini yaxshilash orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Jamiyatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish uchun qo‘shimcha ishchi o‘rinlari yaratish, ularni ishga tushurish aholining tabiiy o‘shidan orqada qolmasligi kerak. Shuningdek, aholining doimiy ravishda yaxshi ta‘minlangan maosh bilan band bo‘lishi iqtisodiy rivojlanishni, yaxshi yashash tarzini va farovon hayotni ta‘minlaydi. Ammo, mamlakatda yaxshi rivojlantirilmagan tizim, jumladan, aholini yaxshi malaka bilan ta‘minlash, ularga mos ish o‘rinlarini topib berish tizimlari, aholining bandlik darajasiga salbiy ta‘sir etadi. Bu esa, aholining ishlashga rag‘batini so‘ndirishi, yaxshi mahoratga ega bo‘lmagan aholi yaxshi ish bilan ta‘minlanmasligi va har qanday tashqi muhitdan kelgan raqobatda yutqazishga majbur bo‘ladi. O‘z-o‘zidan mehnat resursining mamlakatdan tashqari chiqishi, inson kapitalining ketib qolishi kuzatiladi. Bu jarayon uchun Mehnat birjasini rivojlantirish, mahorat va malaka o‘rgata oladigan xususiy sektorlarni joriy qilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish strategiyasi”
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 16.09.2021 yildagi PQ- 5245 son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida»gi Qonuni
4. Abduraxmonov Q.X., Shoyusupova N.T. Aholini ish bilan bandligi. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2011. - 291 b.
5. Xolmo‘minov Sh.R., Xolmurodov S.E. Mehnat bozori iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013. - 228 b.